

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>S.MAHMUDOVA</b>	
“Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir” .....	6
	PEDAGOGIKA
<b>X.Kadirov, B.Xamdamov</b>	
Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati .....	8
<b>L.Yoʻldosheva</b>	
Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	13
<b>M.Alimjanova</b>	
Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari .....	17
<b>B.Xaydarov</b>	
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
<b>G.Absalamova</b>	
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.....	28
<b>F.Mirzayeva</b>	
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
	IQTISODIYOT
<b>T.Xaydarov, B.Karimov</b>	
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi .....	36
	FALSAFA, SIYOSAT
<b>N.Hakimov, D.Amrudinova</b>	
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
<b>I.Raximov</b>	
Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari .....	48
<b>R.Isamutdinov</b>	
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
<b>S.Xoliqov</b>	
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari .....	57
	TARIH
<b>M.Xurramov</b>	
1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari .....	61
<b>R.Arslonzoda</b>	
Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi .....	69
<b>I.Gʻulomov, Z.Kasimova</b>	
Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish .....	76
<b>Gʻ.Haydarov</b>	
Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi .....	83
<b>G.Dadamirzayeva</b>	
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati .....	88
<b>A.Abduali</b>	
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
<b>N.Komilov</b>	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
<b>M.Darmonova</b>	
“Katta qirgʻin”ning yosh qurboni.....	103
<b>L.Sokolova</b>	
Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari .....	107
<b>O.Zaripov</b>	
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi .....	113

**TURKISTON MUXTORIYATI BOSH VAZIRI O'RINBOSARI – ISLOM SHOAHMEDOV HAYOTI VA FAOLIYATINING YANGI QIRRALARI.****НОВЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАМЕСТИТЕЛЯ ПРЕМЬЕР-МИНИСТРА ТУРКЕСТАНСКОЙ АВТОНОМИИ ИСЛАМА ШОАХМЕДОВА****NEW ASPECTS OF THE LIFE AND ACTIVITIES OF THE DEPUTY PRIME MINISTER OF THE TURKESTAN AUTONOMY ISLAM SHOAKHMEDOV****Komilov Nodirbek Bokijonovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>**Komilov Nodirbek Bokijonovich***– Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd).***Annotatsiya**

Maqolada Turkiston Muxtoriyati bosh vazirining o'rinbosari, huquqshunos, siyosiy jurnalist Islom Shohsultonovich Shoahmedov (1886-1922) hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar manbalar asosida yoritilgan.

Bundan tashqari, siyosiy arbobning jadidlar siyosiy yetakchisi hamda "Musulmon gazetasi"ning tashkil etilishi va yirik noshir sifatidagi faoliyatining yangi qirralari, qolaversa, siyosiy muxbir sifatidagi tariximizda uchramaydigan faoliyati hamda qarashlari mahalliy va chet el olimlari asarlari hamda davriy nashrlari asosida yoritilgan.

Islom Shohsultonovich Shoahmedov hayoti va faoliyati mahalliy, xorij olimlarining doimiy e'tiborida bo'ldi. Ularning ilmiy tadqiqotlarida Islom Shoahmedovning jadid ma'rifatparvari sifatidagi faoliyati, uning noshirlik faoliyati va Turkiston Muxtoriyati bosh vazirining o'rinbosari sifatidagi faoliyatiga keng e'tibor qaratildi. Lekin Sovet Ittifoqi olimlarining ayrim tadqiqotlarida Turkiston Muxtoriyati va jadidlar faoliyatiga burjua-millatchi sifatida qaraldi. Shuningdek, sovet hukumati qatag'on siyosatining ijrochi organlaridan biri bo'lgan – OGPU siyosiy byurosi Islom Shoahmedov va boshqa jadidlar haqida to'qima, yolg'on va haqiqatdan yiroq ma'lumotlarni tarqatdi. Bu esa Turkiston uchun jonini fido qilgan arbobning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi va umrining oxirida kasalligi bilan vafot etdi.

**Аннотация**

В статье представлены сведения о жизни и деятельности заместителя премьер-министра Туркестанской автономии, юриста, политического журналиста Ислама Шохсultonовича Шоахмедова (1886-1922).

Кроме того, в трудах и периодических изданиях местных и зарубежных ученых освещаются новые аспекты деятельности джадидского политического лидера, создания и деятельности «Мусульманской газеты» как крупного издательства, а также его уникальная деятельность и взгляды в качестве политического корреспондента.

Жизнь и творчество Ислама Шохсultonовича Шоахмедова всегда были в центре внимания отечественных и зарубежных ученых. Основное внимание в их исследовании уделялось деятельности Ислама Шоахмедова как современного просветителя, его издательской деятельности, а также деятельности в качестве заместителя премьер-министра Туркестанской автономной области. Однако в некоторых исследованиях советских ученых автономия Туркестана и деятельность джадидов рассматривались как буржуазно-националистические. Их деятельность была осуждена. Политбюро ОГПУ, один из исполнительных органов репрессивной политики советского правительства, также распространяло сфабрикованные, ложные и не соответствующие действительности сведения об Исламе Шоахмедове и других джадидах. На деятельности человека, отдавшего жизнь за Туркестан, это не сказалось, и он умер от болезни в конце жизни.

**Abstract**

The article provides information about the life and work of the Deputy Prime Minister of the Turkestan Autonomous Region, lawyer, political journalist Islam Shohsultonovich Shoahmedov (1886-1922).

In addition, new aspects of the Jadid political leader and the establishment of the Muslim newspaper and his activities as a major publisher, as well as his activities and views as a political correspondent, are covered in the works and periodicals of local and foreign scholars.

The life and work of Islam Shohsultonovich Shoahmedov have always been in the spotlight of local and foreign scholars. Their research focused on Islam Shoahmedov's activities as a modern enlightener, his publishing activities, and his activities as Deputy Prime Minister of the Turkestan Autonomous Region. However, in some studies by Soviet scholars, the autonomy of Turkestan and the activities of the Jadids were viewed as bourgeois-nationalist. Their activities were condemned. The OGPU Politburo, one of the executive bodies of the Soviet government's policy of repression, also spread fabricated, false, and untrue information about Islam Shoahmedov and other Jadids. This did not affect the activities of the man who sacrificed his life for Turkestan, and he died of an illness at the end of his life.

**Kalit so'zlar.** Muxtoriyat, jadidlar, "Sho'roi Islomiya", legitimlik, qurultoy, g'oya, bolsheviklar, advokat.

**Ключевые слова.** Автономия, джадиды, "Шурои Исломия", легитимность, съезд, идея, большевики, адвокат.

**Keywords.** Autonomy, jadids, "Shuroi Islomiya", legitimacy, congress, idea, bolsheviks, lawyer.

## TARIX

**KIRISH.** Jahonda ro'yi berayotgan globallashuv jarayonlari milliy davlatchilik tarixini, uning rivojlanish istiqbollari, shuningdek, har bir halq va millatning yuksalishi uchun qayg'urgan tarixiy shaxslar faoliyatini tadqiq etish muhimligini ko'rsatmoqda. Xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan birinchi milliy-demokratik davlat hisoblangan - Turkiston Muxtoriyati vazirlari hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq etish vatanimiz tarixining mazkur davriga daxldor muammolarini o'rganishda yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda Turkiston Muxtoriyati tarixi, ayniqsa, uning rahbarlari, a'zolarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan yaxlit ilmiy tadqiqotlar u qadar ko'p emas. Shuningdek, Turkiston Muxtoriyati rahbarlarining bosib o'tgan hayot yo'li, taqdiri to'laqonli yoritildi, deb aytishga ham o'zlik qilamiz. Buning asosiy sabablaridan biri Turkiston muxtoriyati va uning rahbarlari haqidagi bor hujjat va materiallar maxfiylik tamg'asi ostida saqlanib kelinganidir. Ulardan foydalanish imkoniyati deyarli yo'q darajada bo'lib, sovetlar davrida hatto ularning nomlarini keltirish ham ta'qiqlangan edi. Faqat mustaqillik arafasi va istiqloq yillaridagina tadqiqotchilar mazkur mavzuga ijobiy nuqtai-nazardan yondasha boshladilar. Arxivlarda maxfiylik tamg'asi bilan saqlanib kelinayotgan hujjat va materiallardan ilmiy tadqiqotchilar foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Bu o'rinda Turkiston Muxtoriyati rahbarlaridan Muhammadjon Tinishboev, Mustafo Cho'qaevlarning tarixiy merosi haqida Qozog'iston Respublikasida tadqiqotlar e'lon qilinib, dissertatsiya ishlari himoya qilindi [Jetshsbaeva, 1999].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mamlakatimizda ham ushbu tendensiya rivojlanib, Turkiston Muxtoriyati a'zolarining hayoti va faoliyatini o'rganish yo'lida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Muxtoriyat oziq-ovqat vaziri Obidjon Mahmudovning hayoti va faoliyati dissertatsiya ishi sifatida himoya qilindi, qolaversa, maorif vaziri Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayevning hayoti va faoliyati Andijon davlat universiteti doktoranti D.Homidov tomonidan o'rganilmoqda. Biroq muxtoriyatchilarning boshqa a'zolari faoliyati tadqiqot obyektiga aylangani yo'q. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi muxtoriyatchilarning ilmiy merosini kelajak avlodga yetkazish barobarida, ular faoliyatini tadqiq etish uchun asos bo'ladi, degan umiddamiz.

Ma'lumki, Turkiston Muxtoriyatining qonuniy faoliyati uzoq yillar davomida Sovet hukumati tomonidan muntazam tanqid ostiga olindi va muxtoriyatchilarning faoliyatiga salbiy baho berildi. Misol uchun, 1917-yil 27-noyabrdagi va 1917-yil 1-dekabrdagi ikki hujjatda Turkiston Muxtoriyati – “burjua-millatchi” hukumat deb ta'kidlanib, to'plam mualliflari (I.T.Bezrukova, M.L.Vays, M.I.Vekselman, N.V.Mandalskaya, K.Z.Muxsinovalar) qonuniy Turkiston Muxtoriyatining 2017-yil 27-noyabrdagi, 1917-yil 1-dekabrdagi murojaatlarini asossiz ravishda buzib, ushbu hujjat ma'nosini sovetlar siyosati va mafkurasiga sun'iy ravishda singdirishga urinishgan va tarixiy haqiqatni butunlay soxtalashtirishgan. Vaxolanki, Turkiston Muxtoriyatining tashqi ishlar vaziri, keyinchalik bosh vaziri bo'lgan Mustafo Cho'qaev ana shu yuqoridagi ikki hujjatni aslida qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni “Turkestanskiy vestnik”, Tashkent 1917, 5-dekabr №18 “Ot Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana” deb keltirgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida mahalliy olimlardan M.Hasanov birinchi bo'lib Turkiston Muxtoriyatining legitimlik faoliyatiga ijobiy baho berib, yuqoridagi kabi holatlarni tanqid qilgan.

Turkiston Muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan qonga botirilishi haqida professor R.Shamsutdinov o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlagan [Shamsutdinov, 2017].

Xorijlik ilmiy tadqiqotchilardan Xolid Adib [Khalid, 2007], Edvard Olvortlar [Allworth, 1994] ham Turkiston Muxtoriyati vazirlarining faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan.

**NATIJALAR.** Turkiston Muxtoriyatida bosh vazir o'rinbosari sifatida faoliyat olib borgan Islom (Shoh-Islom) Shohsultonovich Shoahmedov 1886-yil 21-noyabrda Orenburg shahrida huquqshunos oilasida tug'ilgan.

Otasi Shohsulton Shoahmedov (1855-1896) Ufa guberniyasining Menzelin uyezdidagi “boshqirdlar”dan kelib chiqqan. 1876-yilda Qozon universitetining yuridik fakultetini tamomlab, 1877-yilda “Jahon institutlarining fuqarolik da'volari yurisdiksiyasi to'g'risida” nomli huquq fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgandan so'ng, Orenburgga ko'chib o'tadi. Bu yerda u Orenburg tatar o'qituvchilar maktabida faoliyat olib boradi. 1890-yildan to vafot etguniga qadar Orenburg o'lkasining turli sud muassasalarida sud-tibbiyot eksperti bo'lib ishlagan.

1885-yilda Shohsulton Shoahmedov kollegial maslahatchi, 1889-yilda davlat maslahatchisi unvoni bilan taqdirlangan, shuningdek, 3-darajali “Muqaddas Stanislav” ordeni bilan taqdirlangan. Shoahmedovlarning olti farzandi bo‘lgan: ikki o‘g‘il: Shoh Islom va akasi Shoh Gali hamda to‘rt qiz (Bibi Maryam, Bibi Galiya, Bibi Soliya va Bibi Zuhra).

Islom Shoahmedov ham ota izidan borib, 1905-yilda Orenburg erkaklar gimnaziyasini a’lo baholar bilan tugatadi va Peterburg universitetining yuridik fakultetiga o‘qishga kirib, 1910-yilda tamomlaydi.

Talabalik yillarida Islom Shoahmedov yirik davlat va jamoat arbobi Said Gabiev bilan tanishib qoladi va 1912-yil 12-oktyabrda Sankt-Peterburgda ular “Musulmon gazetasi”ni tashkil etadilar. Gazetaning dastlabki uchta soni umumiy muharrirlikda chop etilgan. Keyin yagona muharrir-noshir sifatida faqat Said Gabiev faoliyat olib boradi. Islom Shoahmedov esa turli siyosiy mavzulardagi maqolalar muallifi sifatida faoliyat yuritadi. Gazeta to‘rt betdan iborat bo‘lib, dastlabki uch bet rus tilida, to‘rtinchi varag‘i esa tatar tilida chop etilgan.

Gazeta tatar savdogarlari va dvoryanlarining moliyaviy ko‘magi ostida o‘z faoliyatini olib borgan. Ular orasida qozonlik savdogar Sulaymon Aitov, yekaterinburglik tadbirkorlar aka-uka Agafurovlar, general Magiparvaz Shayx Ali va boshqalar bor edi. Podsho Rossiyasi senzurchisi V.D. Smirnovning fikricha, gazeta “o‘ta muxolif xususiyatga ega edi”. Shuning uchun gazeta tez-tez tazyiqlarga uchrab turgan, ya’ni muharrirlar jinoiy javobgarlikka va jarimaga tortilgan, gazetaning ba’zi sonlari hatto yo‘q qilingan (№ 7, 13, 18 va boshqalar).

“Musulmanskaya gazeta”ning 1913-yil 28-avgustdagi 22-soni

Islom Shoahmedovning avvaliga nashr tashabbuskori, so‘ngra siyosiy maqolalar muallifi sifatida ishtirok etishi gazetaning ijtimoiy-siyosiy jihatdan rivojlanishiga turtki berdi. U asosan, Davlat Dumasining musulmon fraksiyasi, butun mamlakatning siyosiy hayoti, shuningdek, siyosiy institutlarni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari haqida turli maqolalar e’lon qildi. E’tiborlisi, Islom Shoahmedov mamlakatdagi o‘zgarishlar umumiy xarakterga ega bo‘lishi, musulmonlar harakatini boshqalardan ajratib qo‘ymaslik kerak, degan fikrda edi.



Islom Shoahmedov Davlat Dumasining 4-yig‘ilishidan keyin chop etilgan maqolasida shunday deb yozgan edi: “Musulmonlar uchun nihoyat illyuziyalardan voz kechish vaqti keldi, fuqaro huquqlari o‘zini-o‘zi boshqarish orqali beriladi... Musulmonlar har bir millatning yaxshi rivojlanishi boshqa millatlar manfaatiga bog‘liq ekanini tushunishlari kerak” [Musulmanskaya gazeta, 1912].

## TARIX

1914-yil iyun oyida og'ir kasallikka chalingan Said Gabiev o'z vataniga jo'nab ketishi bilan gazeta dastlab qisqartirilgan shaklda chiqa boshladi, keyinchalik esa butunlay o'z faoliyatini to'xtatdi.

Islom Shoahmedov esa advokat yordamchisi sifatida faoliyat olib bordi. 1912-yil 31-avgustda u Moskvadagi yirik advokatlardan biri Bruno Germanovich Lopatin Bartning (1877-1938) yordamchisi sifatida ish boshladi.

Birinchi jahon urushi yillarida, ya'ni 1916-yildan Qo'qonda yashab, "G'ayrat" jamiyatining kotibi, shuningdek, Turkistonlik muxbir sifatida esa "Russkie vedomosti" gazetasi bilan hamkorlik qilgan [Usmanova, 2017].

**MUHOKAMA.** Fevral inqilobidan keyin Islom Shoahmedov umummusulmonlar siyosiy harakatida faol ishtirok etdi. 1917-yil mart oyining o'rtalarida Ibniyamin Axtyomov raisligida bo'lib o'tgan musulmon jamoat arboblarning majlisida qatnashish uchun Peterburgga keladi. Yig'ilishda poytaxtda "Rossiya musulmonlari muvaqqat markaziy byurosi"ni tashkil etish zarur deb topilib, uning tarkibiga Davlat Dumasidagi musulmonlar fraksiyasi a'zolari, unga qo'shilgan byuro va mahalliy aholi vakillarini kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan, 1917-yil bahorida Islom Shoahmedov Butunrossiya musulmonlari milliy kengashi (Milliy Sho'ro) a'zosi va kotibi etib saylandi hamda iyul oyining boshidan ushbu tashkilotning Ijroiya qo'mitasi raisi lavozimida ishladi.

Uning huquq sohasidagi tajribasi va musulmon siyosiy jamiyatidagi faol pozitsiyasi, shuningdek, Turkiston musulmonlari ahvolidan xabardorligi tufayli Islom Shoahmedov nomzodi "Ta'sis majlisiga saylov to'g'risida"gi Nizom loyihasini ishlab chiqish bo'yicha maxsus yig'ilishga kiritildi. O'sha yilning kuzida u saylov kompaniyasida qatnashib, Umumfarg'ona musulmon tashkilotlari ro'yxati bo'yicha Ta'sis majlisiga delegat etib saylandi.

Islom Shoahmedov Butunrossiya musulmonlar harakatida faol ishtirok etish bilan bir qatorda Turkiston muxtoriyatini e'lon qilish uchun kurashning markazida turgan asosiy shaxslardan biri edi.

U birinchi Umumturkiston musulmonlari qurultoyida (1917-yil 14-22-aprel) dastlab qurultoy prezidiumiga saylangan, qurultoy yakunlariga ko'ra esa, Mustafo Cho'qaev rahbarligidagi Turkiston o'lka musulmonlari kengashi a'zosi bo'lgan [Rajabov, 2021].

Musulmonlar kengashi Turkiston yosh islohotchilarining organi bo'lib, asosan dunyoviy ta'lim olgan musulmon yoshlardan iborat edi. Kengashning asosiy vazifasi mahalliy musulmonlar hayotini Yevropa tamoyillari asosida qayta tashkil etish uchun kurash edi.

Islom Shoahmedov Turkiston viloyati musulmonlari kengashining amaldagi nashrlari hisoblangan "Turkestanskije vedomosti" va "Turkestanskiy kray" gazetalari sahifalarida rasmiy nashriyotchi, muharrir ko'plab maqolalar muallifi sifatida faoliyat olib borgan.

Islom Shoahmedov ikkinchi Turkiston o'lka umummusulmonlar qurultoyida (1917-yil 8-11 sentyabr) Turkiston o'lkasining "milliy-hududiy-federativ" shaklda tashkil etilishini qo'llab-quvvatlab, uni keyinchalik Ta'sis Majlisida ko'rib chiqish uchun taqdim etgan.

U mamlakatni federativ asosda qayta tashkil etish haqidagi ma'ruzalaridan keyin Turkiston muxtoriyatini e'lon qilish harakatida ham faol qatnashdi (1917-yil 27-noyabr -1918-yil 18-fevral).

**XULOSA.** Turkiston muxtoriyati hukumatining birinchi tarkibida Islom Shoahmedov hukumat raisining o'rinbosari lavozimida ishladi. Keyinchalik u moliya vazirining o'rinbosari lavozimini bir vaqtda bajardi. Eng muhimi, Islom Shoahmedov Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muallifi ham edi.

Mustafo Cho'qaev o'zining yaqin do'sti va hamkasbining zo'r adabiy iste'dod egasi, qalami o'tkir, so'z va uslubni sezuvchi, shuningdek, puxta huquqiy tayyorgarlikka ega ekanligini o'z esdaliklarida ko'p bor. Adabiy rus tilini mukammal bilishi Islom Shoahmedov shaxsini Turkiston muxtoriyatining ko'plab siyosiy matnlarini tuzishda asosiy shaxsga aylantirdi.

1918-yil fevralda Qo'qon muxtoriyati mag'lubiyatga uchrach, Islom Shoahmedov bolsheviklar tomonidan hibsga olingan. Ehtimol, muxtoriyatning mag'lubiyati va uning tarafdorlariga nisbatan vahshiyliklar, qamoqda saqlash sharoitlari, jismoniy va ruhiy ta'sir choralari, shuningdek, boshqa tajribalar uning og'ir kasallikka chalinishiga olib kelgan. 1918-yil bahorida Turkistonning qator gazetalarda, xususan, tatar tilidagi "Ulug' Turkiston" gazetasida ruhiy kasallik tufayli Islom

Shoahmedovning 1918-yilning aprel oyidan - may oyigacha bo'lgan davrda qamoqxona kasalxonasiga joylashtirilgani haqida ma'lumotlar ham mavjud. Ko'p o'tmay, xuddi shu gazetada uning o'z joniga qasd qilishga urinishi va alohida kameraga joylashtirilishi haqida ham maqola chop etildi.

1918-yil may oyida Islom Shoahmedov ozodlikka chiqqach, Hindistonga (eng ko'p Turkiston muhojirlari to'plangan) ketadi, lekin tez orada kasal bo'lib, shifoxonaga yotqizilgan (1920). Mustaf Cho'qaev va boshqa do'stlarining iltimosiga ko'ra, Vladivostokdagi qarindoshlari oldiga qaytarilgan [Chokaev, 1931].

1922-yilda Mustaf Cho'qaev o'z esdaliklarida Parijda bo'lganida hamon noxush holatda bo'lgan do'sti haqida so'nggi ma'lumotlarni eshitganligi haqida yozgan [Shoqay,2017]. Uning keyingi taqdiri noma'lum.

#### ADABIYOTLAR:

1. Jetshbaeva M.S. (1999) Qazaqstandagi azamattiq qog'amdi qal iptastirudin iegizderine eleumettik-filosofiyaliq taldau (Mustafa Shoqay shigarmashiligi boyinsha). (Doctoral dissertation). Kazakh national University. Almati. (in Kazakh).
2. Jugenbaeva G.S. (1999). Muxamedjan Tinishbaevtin omiri men qizmeti (1879-1938). (Doctoral dissertation). Kazakh national University. Almati. (in Kazakh).
3. Shamsutdinov R. Karimov Sh. (2017). Turkiston Muxtoriyatiga bolsheviklar tajovuzi. O'zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyatining o'rni va roli" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2. 64. (in Uzbek)
4. Khalid, A. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. (pp. 272). London: University of California press. (in English)
5. Allworth E. (1994). 130 years of Russian dominance, a historical overview. (pp. 150-158). London: Duke university press. (in English)
6. Musulmanskaya gazeta. (1912), 3, 1-4. (in Russian).
7. Usmanova D. (2017). Islam Shagiakhmetov: Zabitie geroi 1917 g. Gasirlar avazi - Exo vekov. *Seriya: Istoriya*, 3/4, 170-179. (in Russian).
8. Rajabov Q. (2021). Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy majlis a'zolari hayoti va taqdiri. Issue WP/2021/70. Tashkent: Bodomzor invest. (in Uzbek).
9. Chokaev M. (1931). Shahislam Shahiaxmed (duslik vazifasi). Yash Turkestan. *Seriya: Istoriya*, 14, 6-8. (in Kazakh).
10. Shoqay M. (2017). Shig'armalarinin toliq jinagi. Issue WP/2017/5, reprint. Almaty: Kazakh Academy of Sciences. (in Kazakh).

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)